

AMIR TEMUR DAVLATI VA HARBIY SAN'ATINING TARIXIY-STRATEGIK ASOSLARI

Alisher Mamajonov

O'zbekiston Respublikasi Z.M.Bobur nomidagi Andijon davlat universiteti "Jahon tarixi" kafedrasi professori

Sarkarbayeva Xojinisa

Qirg'iziston Respublikasi Jalol-Obod mamlekettik universitetinin Tarix fakulteti III-kurs talabasi

Mamatkarimova Aydana

Qirg'iziston Respublikasi Jalol-Obod mamlekettik universitetinin Tarix fakulteti III-kurs talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada Amir Temur saltanatida davlat boshqaruvi tizimi va harbiy san'atning o'ziga xos jihatlari tahlil qilinadi. Temur davlatida markazlashgan boshqaruv tizimi, adolat va intizom tamoyillari asosida davlatni idora etish usullari ko'rib chiqiladi. Shuningdek, Temurning davlatchilik va harbiy san'at rivojiga qo'shgan hissasi yoritiladi.

Kalit so'zlar: Davlat boshqaruvi, harbiy qo'mondon, harbiy san'at, harbiy yurishlar, strategiya, markazlashgan davlat,.

Jahon tarixida buyuk davlat arboblari va sarkardalar muhim o'rin tutadi. XIV asrda Markaziy Osiyoda kuchli va markazlashgan davlat barpo etgan Amir Temur ana shunday tarixiy shaxslardan biri hisoblanadi. U nafaqat yirik harbiy qo'mondon, balki davlat boshqaruvini mukammal tizim asosida tashkil etgan siyosiy arbob sifatida ham tanilgan.

Temur davrida davlat boshqaruvi markazlashgan tizimga asoslangan bo'lib, mamlakatda adolat va tartibni ta'minlashga katta ahamiyat berilgan. Bu esa davlatning siyosiy barqarorligi va harbiy qudratini mustahkamlashda muhim omil bo'lgan.

“Amir Temurning harbiy yurishlar qilishiga bir qancha sabablar bor edi. U avvalo mamlakat ichkarisidagi ichki tarqoqlikni tugatish, Movarounnahrda markazlashgan davlat tuzish va bu davlatni shimoldan xavfi kuchli bo'lgan Oltin O'rda, Eronga qarshi kurasha olishga yetarli qudratini ta'minlash, bu orqali Buyuk Ipak yo'lini o'z nazorati ostiga olish maqsadlarini yurishlar orqali amalga oshirgan. Amir Temur avvalo savdo-sotiq va hunarmandchilikdan keladigan daromadlarni

ko‘paytirish va tashqi xavflardan himoyalaniş uchun davlat boshqaruv tizimini, tartib-qoidalarni kuchaytirdi.

Amir Temurning har bir yurishi uchun jiddiy sabablar bo‘lgan. Tarixiy manbalardan bilamizki, davlat chegaralarini mustahkamlash, tashqi kuchlardan himoyalaniş, karvon yo‘llaridagi turli qaroqchilar, sotqin, yolg‘onchi, davlat qoidalariga bosh egmagan kishilarni jazolash va o‘z ta‘sir doirasini kuchaytirish uchun turli yurishlarni uyushtirgan”[1.B.12].

Amir Temurning siyosiy faoliyatini ikki bosqichga bo‘lish mumkin:

Birinchi bosqich: (1370-1386-yillar). Bu davrda Amir Temur feodal nizolarga barham berdi, Movarounnahrni yagona davlatga birlashtirdi. Bundan tashqari Xorazmda Xusayn va Yusuf So‘fiylarga qarshi kurashdi.

Ikkinchi bosqich: (1386-1404-yillar). Amir Temur bu davrda Eron, Iroq, Afg‘oniston, Shimoliy Hindiston, Kavkazorti, Misr, Usmonilar va Oltin O‘rdaga qarshi yurishlar qildi. Bu yurishlar oqibatida Osiyoning va Kavkazortining katta qismini o‘z ichiga olgan ulkan saltanat tuzildi.

Amir Temur o‘rta asrlarning yangi kishisi sifatida bajargan siyosiy missiyasi orqali o‘z davri imkoniyat va chegaralaridan o‘zib ketib yangi anana va tizimlarning shakllanishiga sababchi bo‘lgan. U o‘zining o‘lmas zakovati bilan yuz yillar keyingi voqealarni ko‘ra oldi. Amir Temur xatto davlat boshqaruvida turk, mo‘g‘ul, arabiy-forsiy an‘nalardan foydalanib, yangi davlatchilik asoslariini yaratgan va keyingi yuz yilliklarda barcha Sharq davlatlari rahbarlari bu siyosiy maktabdan andoza sifatida foydalangan. U tarixda katalizator rolini bajargan, tarixiy jarayonlarning rivojiga ta‘sir ko‘rsatgan. Masalan O‘rta Osiyoda Amir Temur davrida tovar-pul munosabatlari rivojlanib, ijtimoiy mehnat taqsimotida qishloq va shaharning yaqinlashishi sodir bo‘lgan. Sotsial guruhlar tabaqalangan. Savdogarlarning “Tujjorlar” deb atalgan yangi guruhi tashqi savdoning rivojida muhim rol o‘ynaganlar. Jamiyatda yangi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va ma‘naviy jarayonlar rivoj topib borgan.

Uning saltanatida nainki o‘troq, ko‘chmanchi, balki, turli etnik birliklarni qo‘llab-quvvatlovchi multikultural tizim yaratilgan. Amir Temur saltanatining gorizonti va diapazoni kengayib, Osiyo va Yevroosiyo hududlarining katta qismini o‘z ichiga olgan saltanat bunyod etilgani o‘sha davrdagi globallashuv va integratsiya tushunchalarining shakllanib borishida muhim omillardan bo‘lgan.

“Amir Temur saltanati Yevropa davlatlari bilan ham integratsiyalashib borgan. Yevropaning kichik bir qismining - Konstantinopol va boshqalarning Anqara jangidan keyin Amir Temurga soliq to‘lashi, uni vassalligiga o‘tishi saltanatda Yevropa madaniyati bo‘lganidan, bir-biri bilan tanishi sari qadam qo‘yilganidan dalolatdir. Sohibqiron dunyoni yaxlit birlik va unda xudoning bandalari teng yashash huquqiga ega deb tushungan. U Yevropaga birinchi bo‘lib do‘stlik va hamkorlik yo‘lida qo‘l uzatgan. Yevropa qirollariga yozgan xatlarida ikki tomonlama manfaatli aloqalar

qilish, buni bitimlar orqali imzolashni taklif etgan. Xatlarda “dunyoni savdogarlar obod qiladi, Siz tomondan biz tomonga savdogarlar kelsa biz ularning tinchligini, xotirjamligini kafolatlaymiz, ulardan hech qanday soliq olmaymiz, bizdan borgan savdogarlardan sizlar ham soliq olmanglar” deya ta’kidlab takliflarni kiritgan. Maktublardan birida Amir Temur o‘z davlati bilan Fransiya o‘rtasida savdo aloqalarini o‘rnatish istagini bildirgan” [2, B.49].

“Bu voqealar o‘sha davr uchun tamoman yangilik edi. Amir Temur musulmon Sharqidan xristian G‘arbga birinchi Sharq hukmdori sifatida qo‘l uzatgan. Bu do‘stlik va hamkorlik ovozi ekanligidan, o‘sha davrda diniy bag‘rikenglik mavjud bo‘lganidan xabar beradi.

“Amir Temur davrida ulkan saltanatda insonlar o‘zlarini yagona makonda yashayotganini his etdi. Yagona makon g‘oyasining tamal toshi ham qo‘yildi. Sohibqiron yigirma yetti davlatni o‘z ichiga olgan saltanatni yettita vazirlik orqali boshqargan. Amir Temur o‘z davrida harbiy doktrinaga ega bo‘lgan. U avvalo eng buyuk lashkarboshi edi. Urushlar asosiy masala bo‘lgan o‘rta asrlarda uning harbiy qudratga erishishi mintaqalarda himoya va nazoratni amalga oshirishda muhim vosita bo‘lgan. Amir Temur juda ham kuchli razvedka maktabini yaratdi. U dunyoda birinchi marta qo‘shinni yetti qismga bo‘lgan, tog‘larda yuradigan piyodalar qismiga asos solgan. Uning harbiy sanatining o‘zi qancha o‘rganilsa shuncha yangi qirralari ochilib boradi. U harbiy sohani yangi bilimlar bilan boyitib, san’at darajasiga ko‘targan.

Uning harakatlari tufayli dunyoning siyosiy xaritasida katta o‘zgarishlar yuzaga kelgan. Amerika olimi Richard Nelson Amir Temurni “Yevroosiyo” g‘oyasining asoschisi deb baho bergandi” [1, B. 2].

Amir Temur Hindiston hamda Xitoydan Qora dengizga qadar, Sirdaryo va Orol dengizidan Fors qo‘ltig‘iga qadar g‘oyat katta hududni qamrab olgan markazlashgan ulkan saltanatga asos solgan. Bundan tashqari Amir Temur davlatiga Kichik Osiyo Suriya, Misr va shimoliy - g‘arbda Quyi Volga, Don bo‘ylari; shimoliy-sharqda Balxash ko‘li va Ili daryosigacha; janubiy-sharqda esa Shimoliy Hindistongacha bo‘lgan mamlakatlar bo‘ysundirilgan va jami 27 davlatni o‘z ichiga olgan ulkan saltanat davlat bunyod etilgan.

“Sohibqiron askarlariga fath etilgan mamlakatning olimu fuzalolari, yuksak iste’dod va hunar egalari, noyob qo‘lyozmalari, qaysi din bo‘lishidan qat’i nazar, ibodatxonalariga zarar yetkazmaslikni buyurgan. Uning saltanatida o‘z davrining eng katta va boy “Dor ul-kutub” (“Kitoblar uyi”) kutubxonasi nodir kitoblar va noyob qo‘lyozmalar bilan to‘ldirilgan. Ularni saqlashga, asrab-avaylashga katta e’tibor berilgan” [3, B. 91].

“Insoniyat tarixida o‘tgan ayrim hukmdorlar urushlarda erishgan g‘alabasidan so‘ng noyob kitob va qo‘lyozmalarni yoqib yuborib, ta’lim maskanlarini yakson qilgan. Temur esa, aksincha, qaysi yurtda bo‘lmasin, kitob va noyob qo‘lyozmalarni

to‘plab, ularni asrab-avaylagan holda Samarqandga jo‘natgan. Bundan maqsad poytaxtini dunyoning eng yirik madaniy markaziga aylantirish edi. Amir Temur fan va madaniyat arboblari, hunarmandlar bir joyga jamlansa, kutubxonalar qancha ko‘p va boy bo‘lsa, mamlakatda ilm-fan va madaniyat shuncha tez rivojlanishini teran anglagan” [4, B. 91].

“Ko‘hna tarix sahifalari Sohibqiron Amir Temurning millat va el-ulus manfaati bobida chekkan mislsiz zahmat hamda ko‘rsatgan shijoatlariga guvohlik beradi. Insofiymon tuyg‘usi, diyonat mezoni Amir Temur hayotining mazmunini tashkil etadi. Olamning qariyb yarmiga hukmronlik qilgan jahongir ersa-da, u kuch-qudrat-zo‘rluk, zo‘ravonlikda emas, aksincha, adolatda ekanini teran angladi. Temuriylar tarixi davlat muzeyi esa ana shunday buyuk shaxsga nisbatan tarixiy adolat tantana qilganining yana bir amaliy isboti bo‘ldi” [5, B. 32].

Xulosa qilib aytganda, Amir Temur davlat boshqaruvi va harbiy san‘ati o‘rta asrlar tarixida muhim o‘rin tutadi. Uning markazlashgan boshqaruv tizimi va mukammal harbiy tashkilotchiligi Temur saltanatining kuchayishiga xizmat qilgan. Temur tomonidan yaratilgan boshqaruv va harbiy tizimlar keyingi davrlarda ham davlatchilik va harbiy san‘at rivojiga katta ta‘sir ko‘rsatgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Шоҳистахон Ўлжаева. Амир Темур даврининг қисқача тарихи. <https://www.facebook.com/groups/246149995752425/posts/345765005790923/> (Murojaat etilgan sana: 22.04.2026).
2. Ҳамраева Наргиза Шодиевна. Буюк Соҳибқирон Амир Темур хориж муаррихлари талқинида. - Qarshi:2015. (Murojaat etilgan sana: 22.04.2026).
3. <https://api.ziyounet.uz/uploads/books/32524/5b1624d56492b.pdf>
4. Амир Темур – жаҳон тарихида. - Тошкент: “Шарқ”, 2006.
5. Комилжон Султонов. “Китобга ошиқ жаҳонгир”. - Тошкент: “Тафаккур” журнали, 2024 йил 4-сон. <https://oyina.uz/kiril/article/3377> 08.01.2025. (Murojaat etilgan sana: 22.04.2026).
6. Сурайё Ўлжабаева, Шахноза Миралиева. Темурийлар тарихи давлат музейида экспозицияларни илмий лойиҳалаш ва янги технологияларни жорий этиш масалалари. - Тошкент: //Ўзбекистон энг янги тарихининг долзарб масалалари фанлараро илмий-назарий журнал № 1 (14) 2024. Б.31-38. (Murojaat etilgan sana: 22.04.2026).